

## ONA TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILAR IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

**Obidjonova Nodiraxon Ismoiljon qizi**

ADPI O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi magistranti

### ANNOTATSIYA

Maqolada maktab o‘quvchilari ijodkorligini rivojlantirishda ona tili darslarining ahamiyati katta ekanligiga alohida e‘tibor qaratilib, o‘quv mashg‘ulotlari davomida o‘quvchilar ijodkorlik qobiliyatlarini o‘stirishga xizmat qiluvchi texnologiyalarning bir qanchasi sanab o‘tiladi. Xususan, ijodiy matn yaratishning samaradorligi alohida ta’kidlanadi.

**Kalit so‘zlar:** kreativlik, globallashuv, kompetensiyaviy ta’lim, ijodkorlik kompetensiyasi, steriotip, ijodkorlik, zamonaviy pedagogik texnologiya.

Kreativ tushunchalar va yondashuvlar dunyoning turli mintaqalarida insoniyat madaniyatining ravnaq topishiga, jumladan, tabiiy, falsafa, san’at va gumanitar fanlarning rivojlanishiga turtki bo‘ldi. Shunday ekan, kreativ fikrlash shunchaki tasodifiy keladigan fikrlardan keskin farq qiladi. Bu bilim va tajribaga asoslangan haqiqiy kompetensiya hisoblanib, insonlarning keskin va murakkab vaziyatlarda kutilgan natijalarga erishishlariga imkon beradi. O‘qituvchilar orasida keng tarqalgan umumiy tushunchaga ko‘ra, ijodkorlik bilan chambarchas bog‘langan va fikrlash jarayonlarida ishtirok etish deb tushuniladigan kreativ fikrlash boshqa alohida bir qator fikrlash qobiliyatlarini takomillashtiradi.

Ta’limning asosiy roli o‘quvchilarni jamiyatda muvaffaqiyatga erishishlari uchun zarur bo‘lgan kompetensiyalar bilan ta’minlashdan iborat. Kreativ fikrlash bugungi yoshlarning rivojlanishlari uchun kerakli kompetensiya hisoblanadi. Bu ularga globallashuv sharoitida jadallik bilan o‘zgarib borayotgan, savodxonlik va raqamlash ilgari surilgan hamda “21-asr” ko‘nikmalariga ega moslashuvchan ishchilarni talab qiladigan dunyoga moslashishga yordam beradi. Kreativ fikrlashni o‘rgatish bugungi kun o‘quvchilari va yoshlariga dolzarb muammolarni yechish uchun yangi texnologiyalardan foydalangan holda hali yaratib ulgurilmagan sektorlarda yoki vazifalarda ishlash, shu bilan birga mashinalar bajara olmaydigan ishlarni osonlikcha amalga oshira olish hamda murakkab mahalliy va global muammolarning yechimini topish qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon beradi.

Maktablarda ham o‘quvchilarning kreativ fikrlashlarini rivojlantirishning ahamiyati mehnat bozori talabiga ko‘ra ortib bormoqda. Maktablar o‘quvchilarni o‘z

qobiliyatlarini kashf etishlariga, rivojlantirishlariga va aniqlashlariga shu bilan bir qatorda, kreativ qobiliyatlarini namoyon etishlarida muhim o‘rin tutadi. Maktablar o‘quvchilarni o‘zlari yashayotgan jamiyatning ajralmas qismi ekanligini va jamiyatning rivoji uchun o‘zlarining muhim hissalarini qo‘shishlari mumkinligi va buni his etishlarida katta ahamiyat kasb etadi.

Kreativ fikrlash o‘quvchilarning tajribalar, hodisalar hamda vaziyatlarni yangicha va mazmunli tarzda talqin etishlarini qo‘llab-quvvatlash orqali ularning bilim olishlariga ko‘maklashadi. O‘quvchining tasavvuri va qiziquvchanligi o‘rganish jarayonini tezlashtirishi mumkin, bunda kreativ fikrlash esa tushunishga va o‘zlarining oldiga o‘rganishdan qo‘yilgan maqsad uchun vosita bo‘lib xizmat qiladi. O‘quvchining maktabdagi o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi va rag‘batini oshirish uchun barcha o‘quvchilarning ijodkorlikka oid imkoniyatlarini hamda qirralarini ochib bera oladigan yangi uslubdagi o‘rganish shakllari rivojlantirilishi lozim. Bunday rivojlanish uslublari maktabda ta’lim olishga qiziqishlari sust bo‘lgan o‘quvchilarga yordam berib, ularga o‘z fikrlarini ifodalash va oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishishga imkon beradi .

O‘quvchilarda ijodkorlik rivojlanishi mavjud stereotiplarga qaram bo‘lib qolmaslik bilan aloqadordir. Ayrim vaziyatlarda ta’lim jarayoni o‘quvchilar ijodkorligini yo‘qotishga sabab bo‘ladi. Sababi, ta’limda deyarli hamma narsa qolipga solingan. Boshlang‘ich sinfda harflarni ikki chiziq orasiga sig‘dirish zarurligini, ustoz o‘rgatgandan boshqa ko‘rinishda yozsa jazolanishi uqtirilgan boladan maktabni tamomlayotganda biror mavzuda insho yozish so‘ralsa, undan “namuna bormi?” degan savol chiqishi , tabiiy. Sababi, jodkorlik erkinlikni talab qiladi. Ijodkor insonlar bir qolipga sig‘maydi. Kimyo fani darg‘alaridan bo‘lmish Mendeleyev maktab chog‘larida kimyo o‘qituvchisidan ikki baho olgani bir qarashda kulguli tuyiladi.

O‘quvchilar ijodkorligini rivojlantirishda ona tili fanining ahamiyati beqiyosdir. Ijodiy tafakkurni o‘stirish uchun o‘qituvchi darslikdagi grammatik mashqlar hamda grammatik qoidalar bilan cheklanib qolmasdan, haqiqiy nutqiy va mantiqiy fikrlash faoliyati bilan shug‘ullanishga o‘rgatmog‘i, asosiy e’tiborni matn tuzishga, shuningdek, matn ustida ishlashga o‘rgatishga qaratib, matn bilan ishlashning turli ijodiy usullarini o‘ylab topishi zarur. Ana shundagina o‘quvchilar ona tili darslarida izlanadilar, mustaqil fikrlaydilar, ijod qilishga o‘rganadilar.

Maktab o‘quvchilarini matnli o‘qitishga o‘rgatish orqali ularda ijodiylik, yaratuvchanlikni hosil qilish mumkin. Ijod qilishga undashni talab qilishdan maqsad o‘quvchining tafakkurini yanada teran bo‘lishga odatlantirish, o‘rganganlarini esa mushohada bilan tatbiq qilishga, tizimga solishga, mustaqil ravishda muhokama qilishga o‘rgatishdan iboratdir. Ana shu maqsadda nazariy bilimlar berish hamda uni mustahkamlashda o‘quvchilarga mustaqil matn tuzish topshiriqlaridan foydalanish

mumkin. Mana shunday metodlar sarasiga “ Men osh qilay, siz sharhlang “ metodini kirishimiz mumkin.

“Men osh qilay, siz sharhlang” metodi

Mazkur metodni bajarish jarayonida o‘quvchilar jurnalistlar pozitsiyasida bo‘ladilar. Bir nafar o‘quvchi o‘zbek milliy taomi hisoblangan osh tayyorlash jarayonida bajarilishi lozim bo‘lgan ishlarni ketma-ketlikda pontomimo shaklida ko‘rsatib turadi. Qolgan o‘quvchilar uning ishoralaridan, harakatlaridan nima qilayotganini anglab, mazkur oshning tayyorlash jarayonidan repotaj matnini yaratishlari kerak. Yakunda yaratilgan ijodiy matnlar solishtirilib, munosiblar e’tirof e’tiladi. Matnni baholashda, avvalo, unga o‘quvchining ijodiy yondashuvi, so‘z qo‘llash borasidagi mahorati, matn tarkibidagi gaplarning uzviyligiga e’tibor beriladi.

Yuqoridagi kabi matn tuzishga natijasida quyidagi bilimlarga erishiladi:

- 1.O‘quvchilar ijod qilishi uchun zamin yaratiladi.
  - 2.Matn tarkibidagi gaplarni bog‘lash yo‘llarini o‘rganadi.
  - 3.Ta’lim mazmunining o‘zagi hisoblangan DTS talablari amalga oshiriladi.
  - 4.Gaplarning aloqadorligi ko‘rsatilgan ijodiy matn ma’lum fikr atrofida birlashadi, butunga aylanadi, buni o‘rganish esa ijodiy tafakkur o‘shishiga sharoit yaratadi.
  - 5.So‘z boyligidan to‘g‘ri, mahorat bilan foydalanish uchun ko‘nikmalar hosil bo‘ladi.
  - 6.O‘quvchilar tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘yishni o‘rganadilar.
  - 7.Ijodiy matnni yozma ravishda bajarish jarayonida farqlash, xulosa chiqarish kabi ilmiy bilish usullari o‘rganiladi.
  - 8.Bir xillikdan voz kechiladi. Fikrlar rang-barangligi esa, albatta, tafakkur o‘shishiga olib keladi.
  - 9.Har bir o‘quvchi muntazam ravishda o‘z ustida ishlaydi.
- Yuqoridagilar o‘quvchilarda tafakkur, nutq, tasavvur qilish qobiliyatlarining rivojlanishiga olib keladi. O‘quvchilarni noan’anaviy matn tuzishga o‘rgatish, ularda ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta’limga joriy etish demakdir.

## **XULOSA**

Bugun dunyoqarashi keng, kreativ fikrlovchi shaxslar jamiyatning har bir sohasi uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunday ijodkor shaxsni tarbiyalashda maktabning, xususan, ona tili darslarining ahamiyati beqiyos. O‘quvchilarning erkin fikrlashiga sharoit yaratish, ularning nutqiy va lingvistik kompetensiyalarini oshirish orqali ularning tafakkurini kengaytirish, kreativligini oshirish, shubhasiz, ona tili darslarida amalga oshiriladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Ziyodova T. Matn yaratish texnologiyasi. – Toshkent: Fan. 2008. – B. 35.
2. Hamroev A. Ona tili ta’limida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish. Ped. fan. dok... dis. – Toshkent, 2020. – 246 b.
3. Yaminova S. O‘quvchilarni mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda ssenariyli o‘qitish usulidan foydalanish. Ped. fan. nomz. ...diss – Toshkent: 1997. – B. 168.
4. Saidov M. O‘zbek maktablarining 5-sinflarida ona tili ta’limi jarayonida tafakkurni rivojlantiruvchi o‘quv topshiriqlari va ulardan foydalanish metodikasi. Ped.fan.nomz. ...diss. – Toshkent, 2000.
5. Muslimov. N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To‘raev A.B.
6. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. – Toshkent, 2015. – 120 bet.
7. Internet saytlari